



INSTITUTIONAL INTERNATIONAL COOPERATION IN HISTORY EDUCATION AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Khurshid Nasriddinovich Tursunov

Doctoral Researcher

Karshi State University

E-mail: kh.tursunov@mail.ru

Science ID: FQD-0678-0014

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: institutional cooperation, international agreement, grant program, TEMPUS, TACIS, joint expedition, higher education institution, module system.

Received: 09.09.26

Accepted: 10.09.26

Published: 11.09.26

Abstract: This article analyzes the institutional-level international cooperation of history faculties and departments at higher education institutions of Uzbekistan — formal agreements, international grant programs, the organization of joint scientific expeditions, and curricular reforms. The study examines the agreements of Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan and the state universities of Andijan, Fergana, Bukhara, Termez, Namangan, and Karshi with foreign institutions and international organizations, as well as projects under TEMPUS and TACIS programs.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TARIX TA’LIMI SOHASIDA INSTITUTSIONAL XALQARO HAMKORLIK

Xurshid Nasriddinovich Tursunov

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

kh.tursunov@mail.ru

Ilmiy identifikatsiya raqami:: FQD-0678-0014

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: institutsional hamkorlik, xalqaro shartnoma, grant dasturi, TEMPUS, TACIS, qo‘shma ekspeditsiya, oliy ta’lim muassasasi, modul tizimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari tarix fakultetlari va kafedralarining institutsional darajadagi xalqaro hamkorligi — rasmiy

shartnomalar, xalqaro grant dasturlari, qo'shma ilmiy ekspeditsiyalar tashkiloti va o'quv-uslubiy islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Termiz, Namangan va Qarshi davlat universitetlarining xorijiy oliy ta'lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar bilan tuzgan shartnomalari, TEMPUS, TASIC kabi dasturlar doirasidagi loyihalari ko'rib chiqiladi. Maqola arxiv hujjatlari va universitetlarning joriy hisobotlari asosida tayyorlangan.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ ИСТОРИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Хурийд Насриддинович Турсунов

Базовый докторант

Каршинского государственного университета

E-mail: kh.tursunov@mail.ru

Научный идентификационный номер: FQD-0678-0014

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
институциональное сотрудничество, международный договор, грантовая программа, TEMPUS, TASIC, совместная экспедиция, высшее учебное заведение, модульная система.		В данной статье анализируется институциональное международное сотрудничество исторических факультетов и кафедр высших учебных заведений Узбекистана — официальные договоры, международные грантовые программы, организация совместных научных экспедиций и учебно-методические реформы. В исследовании рассматриваются договоры Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Андижанского, Ферганского, Бухарского, Термезского, Наманганского и Каршинского государственных университетов с зарубежными вузами и международными организациями, а также проекты в рамках программ TEMPUS, TASIC.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, oliy ta'lim tizimini milliy taraqqiyot ehtiyojlari asosida qayta tashkil etish bilan bir qatorda uni xalqaro ta'lim va ilmiy

makonga integratsiyalash masalasi ham dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ushbu jarayon tarix ta'limiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Tarix fanini o'qitishda milliy davlatchilik tarixini yangicha metodologik asoslarda tadqiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlantirish va tarixchi mutaxassislarning akademik mobilligini ta'minlash uchun yangi institutsional imkoniyatlar shakllana boshladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida tarix ta'limi sohasidagi xalqaro hamkorlikning muhim xususiyati sovet davrida shakllangan metodologik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish va milliy tarixni jahon tarixshunosligi bilan uyg'un holda tadqiq etishga intilishda namoyon bo'ldi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari xorijiy universitetlar, ilmiy-tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar bilan aloqalarni bosqichma-bosqich yo'lga qo'ya boshladi. Natijada tarixchilar uchun xorijiy ilmiy adabiyotlardan foydalanish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, ilmiy stajirovkalar o'tash va qo'shma tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaydi.

Tarix ta'limidagi xalqaro hamkorlikni shartli ravishda bir necha bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich – 1991–2000-yillar bo'lib, bu davrda xalqaro akademik aloqalarning tashkiliy-huquqiy asoslari shakllandi. Xorijiy universitetlar va xalqaro tashkilotlar bilan dastlabki memorandumlar va hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Tarix fanlarini o'qitishda milliy tarixga e'tibor kuchaydi va xorijiy tarixshunoslik tajribasini o'rganishga ehtiyoj ortdi.

Ikkinchi bosqich – 2001–2016-yillar davomida hamkorlik nisbatan tizimli xususiyat kasb etdi. Universitetlararo aloqalar, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, xalqaro konferensiyalar, qo'shma ilmiy loyihalar hamda xorijiy grant dasturlarida ishtirok etish amaliyoti rivojlandi. Bu davrda xalqaro hamkorlik alohida olimlarning ilmiy aloqalaridan universitetlar darajasidagi institutsional munosabatlarga o'tib bordi.

Uchinchi bosqich – 2017-yildan keyingi davr oliy ta'limning xalqaro integratsiyasi sezilarli jadallashgani bilan xarakterlanadi. Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar universitetlarning akademik va ilmiy hamkorlik geografiyasini kengaytirishga, professor-o'qituvchilar va talabalar mobilligini rivojlantirishga, xalqaro grantlar va qo'shma dasturlarda faolroq qatnashishga sharoit yaratdi. Bu jarayon tarix ta'limi va tarixiy tadqiqotlarda ham xalqaro ilmiy standartlar, yangi metodologiyalar hamda fanlararo yondashuvlarga qiziqishning kuchayishiga olib keldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy ta'lim va fan tizimini jahon andozalariga muvofiq isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda alohida olimlarning shaxsiy tashabbusi bilan bir qatorda, oliy ta'lim muassasalarining o'zaro institutsional darajadagi xalqaro aloqalari — rasmiy shartnomalar, qo'shma dasturlar va grant loyihalari muhim o'rin tutdi. Institutsional hamkorlik

shaxsiy aloqalardan farqli o'laroq barqarorligi, moliyaviy ta'minoti va uzoq muddatli natijaviyligi bilan ajralib turadi.

Farg'ona davlat universiteti tarix kafedrası O'zR FA Tarix instituti va Samarqand arxeologiya instituti bilan ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot sohasida rasmiy hamkorlik o'rnatgan, shuningdek O'zbek-Xitoy va O'zbek-Fransuz qo'shma ekspeditsiyalarida institutsional ishtirokchi hisoblanadi. Shartnoma asosida Xo'jand davlat universiteti professori A. Berdaliyev Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy Kengash tarkibiga kiritilgan, bu esa ikki davlat universiteti o'rtasidagi rasmiy akademik integratsiyaning namunasidir [6, 7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qarori asosida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida xalqaro ilmiy hamkorlik institutsional tarzda rivojlantirilgan: Qozog'iston davlat xotin-qizlar pedagogika universiteti bilan hamkorlikda fundamental grant doirasida ikkita xalqaro monografiya tayyorlangan. Jahon tarixi kafedrası esa Janubiy Qozog'iston davlat universiteti, Moskva davlat universiteti, Germaniyaning Gumboldt universiteti va Fridrix-Aleksandr Erlangen-Nyurnberg universiteti bilan barqaror akademik shartnomalar asosida hamkorlik qilgan; Qozon federal universiteti bilan esa alohida ilmiy mavzu bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan [6].

Termiz davlat universitetida tarix fanlari doktori, professor S.N. Tursunov rahbarligida hokimliklar bilan institutsional shartnomalar tuzilgan: Sho'rchi tumani hokimligi bilan 12 million so'mlik, Sherobod tumani hokimligi bilan 13 million so'mlik, Denov tumani hokimligi bilan 10 million so'mlik moliyaviy hajmga ega monografik loyihalar amalga oshirilgan. 2008–2011 yillarga mo'ljallangan alohida shartnoma asosida Termiz davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası Germaniyaning Myunxen universiteti bilan "Janubiy O'zbekiston sivilizatsiya o'chog'i" mavzusida institutsional hamkorlik olib borgan [2].

1990-yillar o'rtalaridan boshlab O'zbekiston Milliy universitetining iqtisodiyot fakulteti TEMPUS dasturi doirasida Buyuk Britaniyaning Surrey universiteti va Daniyaning Kopengagen universiteti bilan hamkorlikda tillarni o'qitish va tarjimani yaxshilash loyihasini, shuningdek Jahon banki instituti grantlarini qo'lga kiritgan. Universitetning tarix fakulteti esa Yevropaning TEMPUS–TASIS "Tarix" va "Yevroosiyo" dasturlarida institutsional ishtirokchi bo'lib, Ekseter (Angliya), Billefeld (GFR), Reyn (Fransiya) universitetlari bilan hamkorlik natijasida o'qituvchi, talaba va aspirantlar almashinuvi tashkil etilgan [4].

1999–2002 yillarda O'zbekiston Milliy universitetining Tarix, siyosatshunoslik va huquqshunoslik fakultetlari ishtirokida Yevropa Ittifoqining TASIS dasturi doirasida "Yevroosiyo" o'quv granti asosida "Xalqaro munosabatlar va huquq" ixtisosligi bo'yicha magistratura kurslari

institutsional tarzda tashkil etilgan — bu alohida olimning emas, balki uch fakultetning birgalikdagi rasmiy loyihasi edi [5].

2010-yillarga kelib tarix yo‘nalishidagi kafedralar Yevropa Ittifoqining TEMPUS 4 dasturi doirasida "TuCAHEA — Yagona O‘rta Osiyo oliy ta‘lim hududi sari: infratuzilmani moslashtirish va sifat madaniyatini rivojlantirish" nomli yirik xalqaro loyihada institutsional ishtirokchi sifatida qatnashgan. Bu loyiha alohida universitetning emas, balki mintaqaviy darajadagi institutsional integratsiyaning namunasi hisoblanadi [6].

Termiz davlat universitetida O‘zbekiston tarixi kafedrasida Fransiya arxeologiya markazi bilan institutsional shartnoma asosida Eski Termiz xarobalarida arxeologik qidiruv ishlarini olib borgan. O‘zbekiston–Fransiya qo‘shma ekspeditsiyasi doirasida Termiz tarixi bo‘yicha ilmiy to‘plamlar nashr etilib, Parij shahrida xalqaro konferensiya o‘tkazilgan — bu ikki tomonlama institutsional loyiha edi. Shuningdek, Fransiya va Yaponiya arxeologlari bilan hamkorlikda Termizning bir qancha tarixiy joylari tekshirilib, natijada Arxeologiya-tarix muzeyi tashkil etilgan; unda 1995–1999 yillarda 5 ming dona eksponat o‘rnatilgan [1].

Farg‘ona davlat universiteti tarix kafedrasida tarix fanlari doktori, professor M. Isomiddinov rahbarligida ilmiy seminar faoliyati institutsional tarzda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, kafedra O‘zbek-Xitoy va O‘zbek-Fransuz qo‘shma ekspeditsiyalarida doimiy ishtirokchi hisoblanadi. Arxeologiya kafedrasida Ispaniyaning Madrid avtonom universiteti bilan tuzilgan institutsional shartnoma asosida Yevropa ta‘lim standartlari joriy etilgan, AQSh universiteti bilan hamkorlikda esa Qashqadaryo viloyatidagi Yerqo‘rg‘on arxeologik yodgorligida muntazam dala tadqiqotlari tashkil etilgan [7].

90-yillar oxirlaridan boshlab respublika oliy ta‘lim muassasalarida Angliya, Fransiya, Daniya kabi davlatlar tajribasi asosida modul tizimi institutsional darajada joriy etila boshlangan. Ushbu tizim O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti 1-kurs talabalari orasida 1998–1999 o‘quv yilida sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, bu alohida o‘qituvchining emas, balki butun fakultetning institutsional qarori edi [6].

2004 yilda O‘zbekiston Milliy universiteti ta‘lim jarayonini o‘quv-metodik jihatdan ta‘minlash maqsadida markazlashtirilgan tartibda Rossiya va boshqa hududlarda nashr etilgan darslik va o‘quv adabiyotlarini xarid qilgan; ushbu adabiyotlarning fakultetlar kesimida taqsimlanishida tarix fakultetiga 821 nusxa o‘quv adabiyoti ajratilgan. Buxoro davlat universitetida ham institutsional tadqiqot loyihalari — "O‘zbek tili qurilishining sistemali tadqiqi", "Yangi sharoitda xalq ta‘limining taraqqiyoti" — natijasida maktablar uchun darsliklar yaratilgan hamda universitet doirasida 32 ta ilmiy-nazariy konferensiya tashkil etilgan [3].

Buxoro davlat universiteti xorijiy mutaxassislarni jalb etishda ham institutsional yondashuvni qo'llagan: qisqa muddat ichida universitetda AQShdan 16, Buyuk Britaniyadan 8, Germaniyadan 3, Janubiy Afrika Respublikasidan 2, Yangi Zelandiyadan 2, Fransiyadan 2, Saudiya Arabistonidan 2, Shveytsariyadan 1 nafar xorijiy mutaxassis rasmiy shartnomalar asosida talabalarga dars bergan. Bundan tashqari, universitet 40 nafarga yaqin xorijiy talabani qisqa muddatli kurslarga qabul qilgan, 68 nafar talaba va 40 nafardan ziyod professor-o'qituvchi esa institutsional almashinuv dasturlari orqali xorijda malaka oshirgan [3].

Institutsional hamkorlikning samaradorligini ilmiy kadrlar tarkibidagi statistik o'zgarishlarda ham kuzatish mumkin. 2012 yilda o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, universitet kafedralarida professor-o'qituvchilarning o'rtacha yoshi sezilarli darajada yoshartirilgan: "O'zbekiston tarixi" kafedrasida o'rtacha yosh 52 dan 45 ga, "Jahon tarixi va manbashunoslik" kafedrasida esa 54 dan 49 yoshga tushgan. Bu institutsional kadrlar siyosatining, jumladan xalqaro hamkorlik orqali yosh mutaxassislarni jalb etishning natijasi sifatida baholanadi [6].

2011–2012 o'quv yilida universitet miqyosida jami 15 nafar aspirant va 144 nafar mustaqil tadqiqotchi ilmiy izlanishlar olib borgan, shundan 4 nafar professor-o'qituvchi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2012 yilda universitet bo'yicha jami 419 nafar professor-o'qituvchidan 129 nafari (31 foizi) ilmiy darajaga ega bo'lgan — bu ko'rsatkich institutsional ilmiy salohiyatning barqaror o'sish tendensiyasini aks ettiradi [6].

Tarix kafedrasida 25,0 shtat birligi mavjud bo'lib, asosiy ish o'rnida 25 nafar, o'rindoshlik asosida 5 nafar professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatadi. Ulardan 2 nafari fan doktori, professor, 7 nafari fan nomzodi, dotsentlar bo'lib, ilmiy salohiyat asosiy shtatga nisbatan 36 foizni, o'rindoshlar bilan birgalikda 30 foizni tashkil qiladi. Kafedrada katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti faoliyati institutsional tarzda yo'lga qo'yilgan bo'lib, izlanuvchilarning ilmiy faoliyati professor-o'qituvchilar tomonidan muntazam tahlil qilib boriladi [7].

Xorijda tahsil olish va malaka oshirish ko'rsatkichlari ham institutsional almashinuv dasturlarining barqarorligidan dalolat beradi: Buxoro davlat universitetidan 68 nafar talaba va 40 nafardan ziyod professor-o'qituvchi rivojlangan mamlakatlarning bilim maskanlarida ilm olgan va malaka oshirgan, universitetga esa 40 nafarga yaqin xorijiy talaba qisqa muddatli kurslarda tahsil olgan. Bunday ikki tomonlama akademik almashinuv institutsional hamkorlikning barqaror va o'zaro manfaatli xarakterini tasdiqlaydi [3].

Natijalar va muhokama. Mustaqillik yillarida xalqaro hamkorlikning eng muhim ko'rinishlaridan biri universitetlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri shartnomaviy munosabatlarning rivojlanishi bo'ldi. Hamkorlik memorandumlari, qo'shma ilmiy loyihalar, konferensiyalar,

akademik almashinuvlar, xorijiy professorlarni o'quv jarayoniga jalb etish va ilmiy stajirovkalar ushbu munosabatlarning asosiy shakllarini tashkil etdi.

Tarix ta'limida institutsional hamkorlikning o'ziga xos jihati shundaki, u ta'lim va ilmiy tadqiqotni bir-biriga bog'laydi. Masalan, tarixchi professor-o'qituvchining xorijiy universitetdagi ilmiy stajirovkasi faqat uning individual ilmiy salohiyatini oshirib qolmay, keyinchalik yangi bilim va metodlarning o'quv dasturlari, seminar mashg'ulotlari va talabalar tadqiqotlariga kirib kelishiga xizmat qiladi. Shu tariqa xalqaro hamkorlikning individual natijasi institutsional tajribaga aylanishi mumkin.

Bundan tashqari, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik tarix fanlarini o'qitishda qiyosiy yondashuvning rivojlanishiga yordam berdi. O'zbekiston tarixini Markaziy Osiyo, Yevropa va jahon tarixidagi jarayonlar bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi. Natijada tarixiy jarayonlarni faqat milliy chegaralar doirasida emas, balki transmilliy va mintaqaviy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida o'rganishga qiziqish ortdi.

Institutsional xalqaro hamkorlikning muhim natijalaridan biri akademik mobillikning rivojlanishidir. Professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar va talabalar uchun xorijiy universitetlarda ta'lim olish, ilmiy izlanish olib borish, arxiv va kutubxona fondlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi tarixiy tadqiqotlarning manbaviy bazasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarix fani uchun xorijiy arxivlar bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixiga oid ko'plab yozma manbalar turli davlatlarning arxivlari, kutubxonalari va ilmiy markazlarida saqlanadi. Xalqaro akademik aloqalar tadqiqotchilarning bunday manbalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, tarixiy jarayonlarni yangi hujjatlar asosida o'rganishga yordam beradi.

Akademik mobillik yosh tadqiqotchilarning metodologik tayyorgarligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy ilmiy markazlarda tarixiy antropologiya, mikrohistory, oral history, digital humanities, qiyosiy va transmilliy tarix kabi yo'nalishlar bilan tanishish tarixshunoslikdagi metodologik doirani kengaytiradi. Bunday tajribaning mahalliy ilmiy va ta'lim muhitiga olib kirilishi tarixchi kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

So'nggi yillarda xalqaro hamkorlikning mazmuniga raqamli texnologiyalar ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Elektron kutubxonalar, raqamlashtirilgan arxiv fondlari, xalqaro ilmiy bazalar va masofaviy konferensiyalar tarixchi tadqiqotchilarning ilmiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Bu jarayon tarix ta'limida manbashunoslik kompetensiyalariga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Talaba va tadqiqotchidan faqat tarixiy manbani topish emas, balki uning kelib

chiqishi, ishonchliligi, raqamlashtirish konteksti va ilmiy talqinini tanqidiy baholash ham talab etiladi. Shu sababli xalqaro hamkorlikni raqamli tarix, elektron arxiv va zamonaviy axborot-resurslaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Erishilgan natijalar bilan bir qatorda, tarix ta'limidagi xalqaro hamkorlikning samaradorligiga ta'sir qiluvchi ayrim muammolar ham mavjud. Birinchidan, hamkorlik memorandumining imzolanishi har doim ham faol ilmiy yoki akademik faoliyatga aylanavermaydi. Shuning uchun xalqaro aloqalarni faqat tuzilgan shartnomalar soni bilan emas, balki amalga oshirilgan qo'shma tadqiqotlar, nashrlar, akademik almashinuvlar va ta'lim dasturlariga kiritilgan yangiliklar bilan baholash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, chet tillarini ilmiy darajada egallash masalasi tarixchi tadqiqotchilarning xalqaro ilmiy maydondagi faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy manbalarni o'rganish, xalqaro konferensiyalarda ma'ruza qilish va nufuzli ilmiy jurnallarda maqola chop etish uchun akademik til kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

Uchinchidan, xalqaro tajribani milliy tarix ta'limiga mexanik tarzda ko'chirish emas, balki mahalliy ilmiy va ta'limiy ehtiyojlarga moslashtirish muhimdir. Xalqaro integratsiya milliy tarixshunoslikning o'ziga xosligini yo'qotishni emas, aksincha, uni xalqaro ilmiy muloqot orqali metodologik va manbashunoslik jihatdan boyitishni anglatishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, kelajakda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tarix ta'limi bo'yicha xalqaro hamkorlikni "memorandum – akademik mobillik – qo'shma tadqiqot – qo'shma nashr – o'quv dasturiga integratsiya – institutsional natija" zanjiri asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv xalqaro hamkorlikning rasmiy aloqalardan real ilmiy va ta'limiy natijalarga aylanishini ta'minlaydi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tarix ta'limi sohasidagi institutsional xalqaro hamkorlik bir necha barqaror shaklda namoyon bo'ladi: universitetlararo rasmiy shartnomalar, xalqaro moliya institutlari (Yevropa Ittifoqi, Jahon banki) tomonidan qo'llab-quvvatlangan grant dasturlari, qo'shma arxeologik ekspeditsiyalar va markazlashtirilgan o'quv-uslubiy islohotlar. Institutsional hamkorlikning shaxsiy tashabbuslardan farqi shundaki, u universitet yoki kafedra darajasida rasmiylashtirilgan, moliyaviy jihatdan ta'minlangan va uzoq muddatli natijalar bilan tavsiflanadi.

Kelgusida institutsional hamkorlikni yanada mustahkamlash, xususan xalqaro akkreditatsiya tizimlari va qo'shma ta'lim dasturlarini kengaytirish orqali O'zbekiston tarix ta'limi tizimining jahon oliy ta'lim makoniga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Mustaqillik yillarida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tarix ta'limi sohasidagi xalqaro hamkorlik dastlabki aloqalar va tajriba almashinuvidan boshlab, bosqichma-bosqich institutsional tusga ega bo'lgan ko'p yo'nalishli jarayonga aylandi. Xorijiy universitetlar, ilmiy markazlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tarixchi kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarning metodologik bazasini kengaytirish, akademik mobillikni rivojlantirish hamda milliy tarixshunoslikni xalqaro ilmiy makon bilan bog'lashga xizmat qildi.

Xalqaro hamkorlik tarix ta'limining mazmuniga ham ta'sir ko'rsatib, qiyosiy, fanlararo va transmilliy yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xorijiy ilmiy adabiyotlar, arxiv materiallari va raqamli resurslardan foydalanishning ortishi tarixiy tadqiqotlarning manbaviy bazasini boyitish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Akademik almashinuvlar esa professor-o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning metodologik hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish vositasiga aylandi.

Shu bilan birga, institutsional xalqaro hamkorlikning samaradorligini faqat tuzilgan memorandumlar yoki amalga oshirilgan tashriflar soni bilan baholash yetarli emas. Uning haqiqiy natijadorligi qo'shma ilmiy loyihalar, xalqaro nashrlar, yangi o'quv kurslari, professor-o'qituvchilar va talabalar mobilligi, xorijiy arxivlardan foydalanish hamda o'zlashtirilgan tajribaning milliy tarix ta'limiga tatbiq etilishi orqali namoyon bo'lishi lozim.

Kelgusida tarix ta'limi sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun uzoq muddatli universitetlararo ilmiy tarmoqlarni shakllantirish, qo'shma tarixiy tadqiqotlarni ko'paytirish, yosh tarixchilarning akademik mobilligini qo'llab-quvvatlash, raqamli tarix va elektron arxivlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Natijada xalqaro hamkorlik O'zbekiston tarix ta'limining jahon ilmiy-ta'lim makoniga integratsiyalashuvini ta'minlovchi va milliy tarixshunoslikning ilmiy salohiyatini oshiruvchi strategik mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haydarov M.E., Tursunov S.N. Termiz davlat universitetining shonli tarixiy yo'li: yuksalishi va salohiyati / mas'ul muharrir P. Bakirov. — Termiz: TermDU nashriyoti, 2016. — B. 49.
2. Haydarov M.E., Tursunov S.N. Termiz davlat universitetining shonli tarixiy yo'li: yuksalishi va salohiyati. Ikkinchi qism. — Termiz, 2016. — B. 230–240.
3. Oxunjon S., Mahmudov M., Davlatov S. Buxoro Davlat universiteti. — T., 2002. — B. 9–10.
4. O'zR OO'MTVA, 2653-fond, 1-ro'yxat, 663-ish, 1–7-varaqlar; 700-ish, 79-varaq; 814-ish, 78–79-varaqlar; 822-ish, 14–16-varaqlar.

5. Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi, 6 d/s-ro'yxat, 66-ish, 35-varaq; 68-ish, 104-varaq.
6. O'zMU joriy arxivi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2018–2019 yil hisobotlari ma'lumotnomasi papkasi.
7. Farg'ona Davlat universiteti joriy arxivi. 2016–2019 yillar uchun hisobotlar.
8. O'zR Markaziy davlat arxivi, 130-fond, 1-ro'yxat, 238, 489-ishlar.